

YURAK ISHEMIK KASALLIGI VA UNING DAVOLASH USULLARI

Boymurodov Xo'jamurod

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash yo'nalishi, 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17305293>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurak ishemik kasalligining sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinik belgilar, tashxis qo'yish usullari hamda zamonaviy davolash yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi. Yurak ishemik kasalligi (YIK) bugungi kunda butun dunyo bo'yicha o'limning eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri hisoblanadi. Kasallik yurak mushagiga yetarli miqdorda qon va kislorod bormasligi oqibatida rivojlanadi. Maqolada kasallikni oldini olish, sog'lom turmush tarzining ahamiyati va farmakologik davolash usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yurak ishemik kasalligi, ateroskleroz, stenokardiya, miokard infarkti, tromboz, rehabilitatsiya, antianginal dorilar, parhez, profilaktika.

Kirish: Yurak ishemik kasalligi (YIK) – bu yurak mushagining (miokardning) qon bilan ta'minlanishi buzilishi natijasida yuzaga keladigan surunkali yoki o'tkir patologik holatlar majmuasidir. Yurak faoliyatining to'liq ishlashi uchun uning hujayralari kislorod va ozuqa moddalarga muhtoj. Agar bu moddalarning yetkazib berilishi kamayib ketsa, yurak mushagi ishemiyaga uchraydi. Ishemik kasalliklar orasida eng ko'p uchraydiganlari: stenokardiya, miokard infarkti, va yurak ritmi buzilishlari hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, yurak-qon tomir kasalliklari dunyo bo'yicha o'lim sabablarining qariyb 30 foizini tashkil etadi. Yurak ishemik kasalligining asosiy sababi – koronar arteriyalarda aterosklerotik blyashkalar hosil bo'lishidir. Ular tomir devorini toraytiradi, qon oqimini kamaytiradi va yurak mushagining kislorod bilan ta'minlanishini yomonlashtiradi. Natijada yurakda og'riq, bosim, nafas qisishi, yurak urishining tezlashuvi kabi belgilar paydo bo'ladi.

Asosiy qism: Yurak ishemik kasalligining sabablari

-YIKning eng asosiy sababi ateroskleroz bo'lib, u koronar tomir devorida xolesterin va yog' moddalari to'planishi natijasida tomirlar torayishiga olib keladi. Quyidagi omillar ateroskleroz rivojlanishiga sabab bo'ladi:

- Qon tarkibida xolesterinning ko'payishi (giperxolesterinemiya)
- Arterial gipertenziya (yuqori qon bosimi)
- Chekish
- Diabet mellitus (qandli diabet)
- Semizlik va noto'g'ri ovqatlanish
- Stress va jismoniy harakatsizlik (gipodinamiya)
- Irsiy moyillik

Bu omillar uzoq muddat davom etganda, yurak tomirlarining ichki qatlamida yallig'lanish jarayonlari boshlanadi, yog' blyashkalari hosil bo'ladi va qon aylanish buziladi.

Ateroskleroz jarayonida tomir devorida endoteliy hujayralari zararlanishi birinchi bosqich hisoblanadi. Zararlangan joyda xolesterin, lipoproteinlar, makrofaglar va yallig'lanish hujayralari to'planadi. Vaqt o'tishi bilan bu blyashka kattalashib, tomir bo'shlig'ini toraytiradi. Agar blyashka yorilib ketsa, tromboz (qon quyqalari) hosil bo'ladi va yurakka qon oqimi butunlay to'xtashi mumkin. Shu paytda yurak mushagining bir qismi nekrozga uchraydi — bu miokard infarkti deyiladi.

Yurak ishemik kasalligining klinik turlari

1. Stenokardiya (angina pectoris) – jismoniy zo‘riqish yoki stress paytida ko‘krak qafasida siqilish og‘rig‘i bilan kechadi.

2. Miokard infarkti – yurak mushagining bir qismi qon bilan ta‘minlanmay qolishi oqibatida o‘ladi.

3. To‘satdan yurak o‘limi – yurakning to‘xtab qolishi bilan kechadigan o‘tkir holat.

4. Ishemik kardiomiopatiya – uzoq muddatli ishemiya natijasida yurak mushagi zaiflashadi.

5. Yurak ritmi buzilishlari (aritmialar) – elektr impulslari notekis kechadi.

YIK belgilari kasallik turiga qarab farq qiladi, lekin eng ko‘p uchraydigan simptomlar quyidagilar.

Ko‘krak qafasida bosuvchi yoki siquvchi og‘riq. Og‘riq chap yelka, bo‘yin, pastki jag‘, yoki qo‘lga tarqaladi

Nafas qisishi, yurak urishining tezlashuvi, holsizlik, sovuq ter, bosh aylanishi. Ba‘zi hollarda, ayniqsa diabet bilan og‘riganlarda, og‘riqsiz (so‘qov) infarkt kechishi ham mumkin

Yurak ishemik kasalligini aniqlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

-Elektrokardiografiya (EKG) – yurakning elektr faoliyatini o‘rganish.

-Ekokardiyografiya (yurak UTT) – yurak mushagi va klapanlarni baholash.

-Stress-testlar (veloergometriya, tredmil testi) – jismoniy yuklamada yurak reaksiyasini aniqlash.

-Koronar angiografiya – tomirlar ichiga kontrast yuborilib, toraygan joylar aniqlanadi.

-Qon tahlillari – xolesterin, triglitserid, troponin, CK-MB darajalari o‘lchanadi.

Dori vositalari bilan davolash.

1. Antianginal dorilar: Nitroglitserin – tomirlarni kengaytiradi, og‘riqni kamaytiradi. Izosorbid dinitrat – uzoq ta‘sir etuvchi nitrat.

2. Beta-blokatorlar: (Atenolol, Metoprolol). Yurak urishini sekinlashtiradi, kislorod sarfini kamaytiradi.

3. Kalsiy kanal blokatorlari: (Verapamil, Amlodipin). Yurak mushagini bo‘shashtiradi, tomirlarni kengaytiradi.

4. Antitrombotsitar vositalar: (Aspirin, Klopidoqrel). Qon quyqalarini hosil bo‘lishining oldini oladi.

5. Statinlar: (Atorvastatin, Rosuvastatin). Xolesterinni kamaytiradi, ateroskleroz rivojlanishini sekinlashtiradi.

6. ACE-ingibitorlar: (Enalapril, Lisinopril). Qon bosimini pasaytiradi, yurak yuklamasini kamaytiradi.

Jarrohlik davolash usullari quyidagilar.

1. Koronar angioplastika (stent qo‘yish) – toraygan tomirni maxsus metall stent bilan kengaytirish.

2. Aorto-koronar shuntlash (AKSh) – yurakka qon oqimini tiklash uchun aylanma yo‘l yaratish operatsiyasi.

3. Yurak transplantatsiyasi – og‘ir ishemik kardiomiopatiyada qo‘llanadi.

Reabilitatsiya va profilaktika chora tadbirlari. YIKdan keyingi davrda bemor quyidagi tavsiyalarga qat‘iy amal qilishi lozim: Spirtli ichimlik va chekishni butunlay to‘xtatish. Yog‘li,

sho'r, qovurilgan ovqatlardan saqlanish. Meva-sabzavotlarga boy parhez. Qon bosimi va qand miqdorini muntazam nazorat qilish. Shifokor tavsiya etgan dori vositalarini doimiy qabul qilish. Yengil jismoniy mashqlar (yurish, suzish).

Stressdan saqlanish. Sog'lom turmush tarzi ahamiyati Profilaktika – davodan afzal. Sog'lom turmush tarzi yurak ishemik kasalligini 40–50% ga kamaytirishi mumkin. Quyidagilar eng muhim choralar hisoblanadi:

Har kuni kamida 30 daqiqa jismoniy faollik. Balanslangan ovqatlanish (o'simlik yog'lari, baliq, tovuq go'shti, don mahsulotlari). Tuz iste'molini cheklash. Ortiqcha vazndan qutulish. Yiliga kamida bir marta EKG va qon tahlili topshirish.

Xulosa: Yurak ishemik kasalligi — zamonaviy tibbiyotdagi eng keng tarqalgan va xavfli yurak patologiyalaridan biridir. Bu kasallik ko'plab omillar ta'sirida, ayniqsa noto'g'ri ovqatlanish, stress, chekish va jismoniy harakatsizlik natijasida kelib chiqadi.

Biroq, erta tashxis, dori vositalarini to'g'ri qo'llash va sog'lom turmush tarzi orqali kasallik oqibatlarini kamaytirish mumkin.

Har bir inson yurak sog'lig'iga e'tibor bilan qarashi, muntazam profilaktik tekshiruvlardan o'tishi va yurakni "hayot motor"i sifatida asrashi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'afurov A.A. "Kardiologiya asoslari", Toshkent, 2019.
2. Abdurahmonov R.M. "Ichki kasalliklar propedevtikasi", Toshkent tibbiyot nashriyoti, 2020.
3. Jo'rabekov N.N. "Farmakologiya", Toshkent, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi. "Yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasi bo'yicha klinik protokollar", Toshkent, 2022.
5. Kadyrov B. "Tibbiy fiziologiya asoslari", Toshkent, 2021.